

**Xudayqulova Zarifa Ummatqulovna**

*GulDU pedagogika va psixologiya  
kafedrasи o’qituvchisi,  
(+998998851901)*

Ajdodlarimiz odob muammosini hal qilishda Har bir xalqning milliy merosi va qadriyatlarini o’rganib, uni umuminsoniy qadriyat darajasiga ko’tardilar. Shuning uchun yosh avlodga odob o’rgatish, kishilik taraqqiyotining har bir bosqichida, turli yo’nalishlarda, tavsiyalar, pand-nasihatlar, munojotlar orqali xalq orzu umidiga yangi – yangi izlanishlar bilan kirib kelgan. Xalq yaratgan afsana, ertak, rivoyat, hikoyat, yozma yodgorliklar - bitiklardi bosh masala – “yaxshilik” va “yomonlik” g’oyalalarini farqlashdir. Pandnomalar – “Turkiy shohnoma”, “Avesto”, “Xotamnoma”, “Qobusnoma” kabilarda xalqning ezgu-orzu umidlari aks ettirilgan. Xalqning bosh merosini o’rganib, odob va axloq haqidagi g’oyalarni tavsillab bir majmuaga mujassamlashtirgan mutafakkir, ma’rifatparvar, mashoyx, hadisshunos olimlar o’z asarlarida uni yanada takomilllashtirganlar.

Shuni ta’kidlash lozimki, odob-axloq borasidagi tushunchalar insoniyat tarixida quyidagi qonuniy taraqqiyotga ega. Odoblilikka doir tushunchalarni adabiy o’sib borishi: imon, e’tiqod, Vatanni sevmak, sabr-bardosh, yo salbiy- yo ijobjiy ko’rinishda bo’lio’dan qat’i nazar shaklan o’zgarmasligi, lekin mazmunan rivojlanuvchi xarakter kasb etishi. Xalq hikmatlarida :

Agar odobli bo’lsang ey sarafroz,  
Ki izzatda bo’lursan qish bilan yoz.

Bu hikmatda odob insonning umur bo’yi hamrohi ekanligi ko’rsatiladi. Odob haqidagi g’oyalarning ma’nosи kengaytirilgan holda mutafakkirlarning asarlarida ifodasini topgan.

Markaziy Osiyo mashoihi, olim-avliyolari ijodiyotida bosh g’oya sifatida odob-axloqning nufuzi deb “nafshi tiyish”, “qo’lni haromga urmaslik”, “oz e, , oz ich, oz so’zla”, yoki “Diling Ollohdha qo’ling mehnatda bo’lsin” kabi shiorlarni olg’a surdilar. Ular Ahmad Yassaviy, Bohouddin Naqshband, Abduholiq G’ijduvoniy, Orifxonlardir. Hadisshunos olimlar Al- Buxoriy, Al- Termiziy payg’ambarimiz hadislarini tahlil qilib “Ishonchli to’plam”, - “Jome As-sahih”ni yaratdilar. Muhammad SAVni “umatlarimga etkazish uchun kim-ki sunnatimga oid 40-hadisni yod olsa men ul odamni qiyomat kuni shafoatimga olurman” degan so’zlari blr. Payg’ambar murojaatiga javoban mutafakkir A. Navoiy “Arbayin” asarida 40-hadisni nazm ila bayon etgan edilar.

Yuqoridagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan ma’rosva milliy qadriyatlarimiz ma’naviyatimizni tashkil e’tadi. Ma’naviyat yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha yoki dunyoda

ma’no izlagan kishi ma’naviyat sari talpinib, yaxshilik va yomonlikning farqini anglab oladi.

Shu sababli bu xislatlarni boshlang’ich sinf o’quvchilarida shakllantirishda o’qituvchi oldiga bir qancha talablar qo’yiladi. Ular quyidagilar: kasbiy bilimdonlik (pedagogik va psixologik), pedagogik mahorat, pedagogik texnika, innovatsion texnologiyalardan unumli, o’rinli foydalana bilish, nutq madaniyatini shakllanganligi.

O’qituvchining nutqi jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir. Chunki u davlatimiz kelajagi bo’lgan bugungi yoshlarni ta’lim-tarbiyasidek o’ta mas’uliyatli ishlari bo’yniga olgan. Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohatlar davlat “Siyosatining ustuvor yo’nalishi deb e’lon qilgan bugungi kunda o’qituvchi nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmokda. Respublikamizning «Davlat tili» haqidagi Qonuni va boshqa hujjatlarda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida e’tibor berilgan. Har bir kadr, eng avvalo o’z ona tilining chinakam sohibi bo’lmog’i lozim.

Yosh avlodni tarbiyalashdek o’ta mas’uliyatli vazifani bo’yniga olgan boshlang’ich sinf o’qituvchisini kasbiy bilim asoslarini yaxshi bilishini o’zi etarli emas. Chunki «o’qituvchining nutqi o’tmas, nochor bo’lsa, uning bilimi qanchalik chuqr va to’g’ri bo’lmasin, o’ziga ham azob, o’quvchi sho’rlikka ham azob

Ona tilida puxta, lo’nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o’qituvchisi uchun ham, ona tili o’qituvchisi uchun ham, boshlang’iya sinf o’qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir, O’qituvchi go’zal o’zni ham, so’zni ham qynamaydigan ravon va ifodalarga boy nutqi bilan o’quvchilarini mahliyo etib, bermoqchi bo’lgan bilimini yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi, ZOTAN, ona tili milliy ma’naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir.

Uzluksiz ta’lim tizimining boshlang’ich debochasi boshlang’ich sinflarda, ayniqsa odobnomada darslarida nutq tadbirdorligini singdirish o’qituvchining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashg’ulotgacha o’quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilish kerak. Ayniqsa odobnomada darslarida o’qituvchi o’z nutq madaniyati bilan namuna ko’rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo’l bilan o’quvchidagi so’z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta’lim amaliyotida ko’rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o’qituvchi juda ko’p vaqtini turli ko’rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu maqlul, ammo, unutmaslik kerakki, nutq madaniyatni o’rgatish, chiroyli so’z zavqini o’stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida, asosiy, jonli ko’rgazmali qurol o’qituvchining o’zidir. Shuning uchun ham bugungi kun o’qituvchisi nuqiga bir nechta talablar qo’yilgan.

Bu talablar nutqning kommunikativ sifatlari bo’lib, u faqatgina nutqning mantiqan to’g’ri, aniq, chiroyli va maqsadga muvofiq bo’lishi nazarda tutadi.

*O'qituvchi nutqining to'g'riliqi deganda, nutq madaniyatiing zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan me'yoriga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy va grammatik me'yorlarini egallashi tushuniladi.* O'qituchchi nutqning to'g'riliqi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Chunki nutq to'g'ri bo'lmasa, uning boshqa kommunikativ sifatlari, ya'ni mantiqiyligi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur etadi. Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga qat'iy amal qilish talab etiladi.

*Nutqning aniqligi* so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim xususiyati, fazilati sifatida fikrni yorqin ifodalash bilan, nutq predmetining ma'nosi bilan, nutqda ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq bo'ladi. Agar o'qituvchi o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga mos so'zlarni tanlasa va o'zi tanlagan so'zlarning ma'nolariga mos vazifalar yuklasa, nutqning aniq bo'lishi tayin. Nutqning tozaligi, deganda, eng avvalo, uning adabiy til me'yoriga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi.

*Nutqning mantiqiyligi* uning asosiy sifatlari bo'lgan to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib keladi.

*O'qituvchi nutqning sofligi.* Nutqning sofligi deganda, eng avvalo, uning adabiy tilning leksik me'yoriga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, madaniy nutq o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilishi, turli til, g'ayri adabiy til unsurlaridan holi bo'lishi kerak. Nutqning sofligiga putur etkazuvchi lisoniy unsurlar, asosan, dialektizmlar va varvarizmlardir. Parazit so'zlar deb ataluvchi lug'aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir

*O'qituvchi nutqining muhim fazilatlaridan biri – ifodalilikdir.* O'qituvchi odobronoma darslarida suhbat metodidan foydalanilar ekan nutqning ifodalilikiga alohida e'tibor berishi lozim. Ifodalilikkinha nutqning o'quvchi tomonidan qabul qilinishini ta'minlaydi. Ifodalari sodda, ammo katta mazmunga ega bo'lgan nutq o'quvchida qiziqish uyg'otadi va uning ongiga tez etib boradi.

*O'qituvchi nutqning boyligi.* Nutqning boyligi o'qituvchining til imkoniyatlaridan qay darajada foydalanganligi bilan aniqlanadi. Nutqda tilning rang-barang ifoda vositalari qanchalik ko'p aks etgan bo'lsa, bunday nutq boy nutq sanaladi. Har bir o'qituvchi o'z nutqiga e'tibor qaratsa, nutq tuzish mas'uliyatini his qilsa, nutqining boy bo'lishiha erishishi mumkin. Nutqqa e'tiborsizlik uni qashshoqlashtiradi.

*O'qituvchi nutqning o'rinnligi.* O'rinnlik nutqning fazilatlari ichida eng muhimlaridan biridir. Chunki nutqning boshqa fazilatlari barcha uchun, nutq so'zlanib turgan sharoit uchun o'rinnli bo'lsagina, o'zini ko'rsata oladi. Aks holda to'g'rilik ham, ifodalilik ham anglashilmaydi.

Nutq o'rnliligin ta'minlash uchun maqollar, matallar, hikmatlar, so'z va iboralar, ayniqsa, frazeologizmlardan keng foydalanish zarur. Odobnoma darslarining barcha sinflardagi mazmunida bunga alohida e'tibor berilgan.

Xullas, o'qituvchi fikrini yaxshi, to'liq bayon qilishi uchun, odobnma darslarida suhbat metodidan foydalanishda nutqiy fazilatlarini mukammal egallagan bo'lishi kerak. Nutq madaniyati tabiat bergen boylik emas, balki o'z ustida tinimsiz ishslash mahsulidir.